“YANGI HAYOT” GAZETASI SHARQIY TURKISTON JADIDCHILIGI TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Shukurjon Anvarjon o‘g‘li Yuldashev*
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti
✉ shukurjonyuldashev76@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Qoshg‘arda chiqqan “Yangi hayot” gazetasining 1934–1936–yillardagi 22 soni ilk muomilaga kiritiladi. Nashr peshlavha, sonlar mundarijasi va materiallar mazmuni asosida o‘rganiladi. Dastlab jamiyat gazetasi bo‘lgan nashr keyinchalik hukumat organiga aylanib, siyosiy tus olgani ko‘rsatiladi. Gazetaning boshqa sonlari hozircha topilmagani uchun tahlil shu sonlar bilan cheklanadi.

Kalit so‘zlar

Sharqiy Turkiston, jadidchilik, uyg‘ur matbuoti, “Yangi hayot”, Qoshg‘ar, oqartish uyushmasi, usuli jadid maktabi, manbashunoslik.

DOI: 10.5281/zenodo.24523865

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz va Volga bo‘yida jadidchilik harakati shakllandi. Harakat tez orada qo‘shni Sharqiy Turkistonga ham yetib keldi. Mahalliy ziyolilar yangi usuldagi maktab, matbaa va boshqa ilg‘or vositalar orqali yurtni taraqqiy ettirishga intildi. Bu ishda mahalliy ziyolilar bilan birga tatar va usmonli taraqqiyparvarlari ham faol qatnashgan. Natijada ko‘plab maktablar ochildi hamda o‘lkada bir necha gazeta va jurnal nashr etilgan. L. Baran 1949 – yilgacha chiqqan gazeta va jurnallarning ro‘yxatini tuzgan. [1. B. 191-211]; A. Inayet Gunnar Jarring[1] kolleksiyasi asosida Qoshg‘arda 1933 –1934-yillarda nash etilgan uchta (Sharqiy Turkiston, Erkin Turkiston va Yangi hayot) gazetani tavsiflagan. [5. B. 1–42]; D. Brophy harakatning ilk bosqichini savdogar oilalar va transchegaraviy aloqalar orqali tahlil qilgan [2; 3]; O. Klimes uyg‘ur milliy diskursining shakllanishida matbuotning o‘rnini ko‘rsatgan [6]. Matbuotga oid ishlar ko‘p, biroq ularning aksariyatida “Yangi hayot”ning 1934 – yildan keying sonlari ishlatilmagan. A. Inayet esa gazeta 1934 – yil avgustida chiqa boshlagani haqida qisqa ma’lumot bilan kifoyalangan. Maqolaning maqsadi – gazetaning 1934 – 1936 – yillardagi 22 sonini manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish va shu asosda jadidchilikning o‘sha davrdagi holatini aniqlash. Maqola tanqidiy tahlil va qiyosiy-tarixiy usulga asoslangan.

ASOSIY QISM


Tahlilga quyidagi sonlar tortildi: 22–31–sonlar (1934–yil dekabr – 1935–yil yanvar), 66–67–sonlar (1935-yil may–iyun) hamda 177–186-sonlar (1936–yil avgust–sentyabr) [9]. Har bir son maqolalar 2 betdan iborat; sana hijriy, xitoycha hamda milodiy hisobda berilgan. Gazetaning muharriri sifatida Qutlug’ Shavqiy[2] keltirilgan. Peshlavha uch yilda ichida uch marta o‘zgargan. U o‘zgarishlar jadid tashabbusi davlat tuzilmasiga bosqichma-bosqich singib borganini ko‘rsatadi.


Bosqich	Sonlar va yil	Nashr	Tiraj
I	22-31 (1934-1935)	Qoshg’ar nashri maorif jamiyati	900 nusxa

[1]Gunnar Jarring (1907–2002) – shved sharqshunosi, turkolog, tilshunos va diplomat. 1929–1930-yillarda Sharqiy Turkistonda ilmiy tadqiqot olib borib, mahalliy aholining tili, tarixi va madaniyatiga oid ko‘plab yozma manbalarni to‘plagan. Uning Sharqiy Turkistonga oid qo‘lyozmalar kolleksiyasi Lund universiteti kutubxonasida saqlanadi.

[2]Qutluq Hoji Shavqiy (1876–1937) – Sharqiy Turkiston jadidchilik harakati namoyandasi, ma’rifatparvar, shoir, jurnalist va noshir. Qoshg’arda zamonaviy ta’lim va milliy matbuot rivojiga katta hissa qo‘shgan. “Ong”, “Sharqiy Turkiston hayoti”, “Erkin Turkiston” va “Yangi hayot” gazetalarini nashr etishda faol ishtirok etgan.

Bosqich	Sonlar va yil	Nashr	Tiraj
II	66-67 (1935)	Urumchi Uyg’ur oqartish uyushmasining Qoshg’ar maorif idorasi sho’basi	1000 nusxa
III	177-186 (1936)	Qoshg’ar viloyati hukumati va Uyg’ur oqartish uyushmasi	2200 nusxa


شينجيانك: كاشغر ولايتي (شين جيانگليق) حكومت و عم اويغور
اقارتو اويوشماسي نشر ناشرافكاري.
مفتده ايكي چقادورغان
ينكى حيات
سان : 2 (178)
گزيته بهاسى
كاشغرده
يل اوچون 125 سر
6 ايليق 80 سر
چين شهرگه
155 سر
95 سر
گزيته ادارهسى : كاشغر شين جين
جانك محكمهسى ينك قبله طرفيدا
كى ملت مجلس كوچهسيدا


ينكى حيات
ملى ، سياسى ، علمى ، اجتماعى
ادبى و اخلاقى گزيته دور
يل اوچون ٢٤ سر
التە آيليق ١٥ سر
هر نسخهسى
ناشرى: كاشغر نشر معارف جمعيتى. مدير : قوتلوغ شوقى
٢٨ نجى شعبان ١٣٥٣ سنه هجريه (پنجشنبه)
(مينكوه نينك ٢٣ نجى يلى)
6 نجى دسمبر 1934 سنه ميلادى
هفتهده ايكى كره نشر اولنور . كلكان مقالهلر
قايتاريلماس مقالهلرنى اوزكارتوكه اداره حقليدور .
سان: ٢٢
امضاسيز مقالهلر قبول قيلنماس
اداره كه كلكان مكتوبلر روشن بولوشى كيرك .

“Yangi hayot” gazetasining peshlavhasi

Birinchi bosqichda gazeta ko‘ngilli ma’rifat jamiyati nomidan chiqqan va o‘zini “milliy, siyosiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy va axloqiy gazeta” deb ta’riflagan. Ikkinchi bosqichda mustaqil jamiyat o‘rnini markazi Urumchida bo‘lgan uyushmaning viloyat sho‘basi egallaydi. Uchinchi bosqichda nashr viloyat hukumati va uyushmaning qo‘shma organiga aylanadi, peshlavhasiga “haftada ikki chiqadurg‘an” izohi qo‘shiladi va tiraji dastlabkisiga nisbatan ikki yarim barobar oshadi. Tirajning oshishi gazeta o‘quvchilar orasida mashhur bo‘lganidan ko‘ra, uning davlat tarqatish tarmog‘iga ulanganini bildiradi. Gazetaning maqomi o’zgargan Bo‘lsa-da, muharrir – Qutlug‘ Shavqiy – o‘z o‘rnida qolgan. Gazeta jadidlarning talablarini shior sifatida emas, amalga oshirilgan yoki oshirilayotgan ish sifatida yoritadi. Maktablar haqidagi eng qimmatli xabar Kucharga[3] oid. 1935–yil yanvarida u yerda 120 nafar o‘quvchi o‘qigan, darslarni Abdulhamid afandi olib borgan, dastur “nihoyati intizom” bilan tuzilgan. O‘qitilgan fanlar: Qur’oni Karim (Misr qiroati), aqoidi zaruriya, ma’lumoti shifohiya, ibodat, diniya, tajvid, tarix, jug‘rofiya, axloq, hifzi sihhat, hisob, handasa, imlo va husni xat. Darslar har kuni o‘tilgan [9, 31 – son, B. 1–2]. Fanlar ro‘yxatidan ko‘rinadiki, diniy ilmlar saqlanib qolgan, ularga yoniga hisob, handasa va jug‘rofiya qo‘shilgan. Xabarda o‘quvchilarning birma-bir imtihon qilingani ham aytilgan; demak, bilimni tekshirish tartibi joriy qilingan. 1935–yil yanvarida Uch Turfonda savdogar va dehqon kasblaridan 400 nafar kishi yig‘ilib, maorif sho‘basi foydasiga iona[4] to‘plagan. Unda alohida badallar besh mingdan ellik ming sergacha[5] bo‘lib, jami taxminan bir million serni yetgan [9, 30–son, B. 2]. Qoshg‘ar maorif mudirligi maktablar mablag‘ini ko‘paytirish uchun shahar markazida do‘kon ochgan, daromadi maktablarga ketgan [9, 26–son, B. 2]. 1936-yilda esa Marolbashida[6] yurt kattalari

[3]Kuchar (Kucha, Kuqa) – Sharqiy Turkistonning tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, Tarim havzasining shimoliy qismida joylashgan. Hozirgi Shinjon-Uyg‘ur muxtor rayonining Oqsuv viloyati tarkibiga kiradi.

[4]Iona **–** (arabcha: إعانة – i‘ona) – yordam berish, ko‘maklashish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ma’nolarini anglatadi.

[5]**Ser** (sar, سر) – XIX asr va XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkistonda muomalada bo‘lgan, kumushga asoslangan tarixiy pul va hisob birligi.

[6]Marolboshi (Maralbashi) – Sharqiy Turkistonning tarixiy aholi maskanlaridan biri. Tarim havzasining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, hozirgi Qoshg’ar viloyatining Bachu tumani hududiga to‘g‘ri keladi.

yig‘ilib, uchta maktab – ikkitasi olti sinfli, bittasi qizlar uchun to‘rt sinfli – ochishga qaror qilgan; butun xarajatni homiylar ko‘targan [9, 178-son, B. 2].

Bu misollardan ko‘rinadiki, maktablar davlat mablag‘iga emas, jamoa ionasi tayangan. Bu Brophy tasvirlagan XIX asr oxiridagi savdogar homiyligining bevosita davomidir[2]. Farqi shuki, endi iona yig‘ish jarayonini rasmiy idora uyushtiradi, hisobotini esa gazeta e’lon qiladi. 1936–yilda matbaa va til masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. O‘sha yilning avgustida Qoshg’arda yangi bosmaxona ishga tushadi va gazeta shu munosabat bilan dasturiy maqola chiqaradi. Ikki yilda ta’lim yo‘lga qo‘yilgan, biroq o‘z tilida darslik yo‘q, muallimlar ko‘pincha yoddan dars o‘tishga majbur, chunki shu paytgacha bosmaxona bo‘lmagan. Asosiy masala boshqa tillardagi maktab kitoblarini tarjima qilish hamda imlo va ona tili darsliklarini tayyorlash oqartish uyushmasining birinchi vazifasi deb belgilanadi [9, 178–son, B. 1]. Shunday qilib, jadidlar dasturining uch asosiy talabi – bosmaxona, til islohoti va darslik – bir sahifada amaliy vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Gazeta yangi madaniy muassasalar haqida ham xabar beradi va teatr bilan musiqani maorifning bir qismi deb ko‘rsatadi. 1934–yil dekabrida “Sanoyi nafisa” ruknida milliy musiqa va teatrga bag‘ishlangan maqola chiqadi. Maqolada milliy ohang millatning kimligini ko‘rsatishi, teatr esa insonni g‘aflat uyg‘otishi yoziladi va bularsiz madaniy hayot bo‘lmasligi aytiladi. Maqolada shu maqsadda tuzilgan “Muhammadiya milliy musiqa jamiyati” iona to‘plashni boshlagani xabar qilinadi va ionachilar ro‘yxati e’lon etiladi [9, 26–son, B. 2]. Men ko‘rgan tadqiqotlarda uchramaydi. Ikki yildan so‘ng teatr sahnada ham ko‘rindi. 1936–yil sentabrida sihhiya mudiri Nu’mon afandi yozgan va o‘zi bosh rolni ijro etgan asar sahnalashtiriladi. Unda soxta tabiblarning hiylalari va xalqning nodonlik tufayli ko‘rgan zarari ko‘rsatiladi [9, 183–son, B. 2]. Syujet jadid dramaturgiyasining an’anaviy mavzusi – xurofot va johillik tanqidi – doirasida turadi. 1934–yil oxirida maorif, millat majlislari va vaqf ishlarini tekshirish uchun nazorat ham joriy qilinadi [9, 26–son, B. 2]. 1935–yil 30–mayida Qoshg‘arda amaldorlar, Urumchidan qaytgan vakillar, Yangihisor, Yorkent, Marolbashi va Fayzobod vakillari hamda ulamo, savdogar va dehqon jamoalari ishtirokida katta majlis o‘tkaziladi [9, 67-son, B. 1]. 1936–yil avgustida esa Qoshg‘arda millat bo‘yicha yangi oqartish uyushmalari – 5–avgustda xitoy, 16–avgustda tungan uyushmasi – tashkil etiladi [9, 178-son, B. 2].

XULOSA

Ko‘rilgan sonlar shuni ko‘rsatadiki, uning maqomi uch marta o‘zgargan: ma’rifat jamiyati organi, oqartish uyushmasi sho‘basining organi, viloyat hukumatining organi. Bosh muharrir o‘zgarmagani uchun bu o‘zgarishlarni bitta nashrning rivojlanish bosqichlari deb qarash mumkin. Tiraj 900 nusxadan 2200 nusxagacha oshgan. Bu gazeta davlat tarqatish tizimiga ulanganini va ta’sir doirasi kengayganini ko‘rsatadi. Manba jadid dasturining amaldagi ko‘rinishini aniq dalillar bilan tiklash imkonini beradi: Kuchar maktabining fan ro‘yxati usuli jadid maktablariga xos. Uch Turfon va Marolbashi misollari maktab moliyasi jamoa ionasiga tayanganini ko‘rsatadi. 1936–yilgi dasturiy maqola esa bosmaxona, imlo va ona tili darsligini amaliy vazifa sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baran L. Çağdaş Uygur edebiyatının oluşması ve gelişmesi // Bilig. – Ankara, 2007. – № 42. – B. 191–211.
2. Brophy D. New Methods on the New Frontier: Islamic Reformism in Xinjiang, 1898–1917 // Journal of the Economic and Social History of the Orient. – Leiden, 2016. – Vol. 59, № 3. – P. 303–332.
3. Brophy D. Uyghur Nation: Reform and Revolution on the Russia-China Frontier. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2016.
4. Forbes A.D.W. Warlords and Muslims in Chinese Central Asia: A Political History of Republican Sinkiang 1911–1949. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
5. İnayet A. 1930’lu Yıllarda Kaşgar’da Çıkan “Şerqî Türkistan Hayati”, “Erkin Türkistan” ve “Yeñgi Hayat” Gazetelerindeki Bazı Şiirler // Uluslararası Uygur Araştırmaları Dergisi. – 2013. – № 1/1. – B. 1–42.
6. Klimeš O. Struggle by the Pen: The Uyghur Discourse of Nation and National Interest, c. 1900–1949. – Leiden: Brill, 2015.
7. Millward J.A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – New York: Columbia University Press, 2007.
8. Talip A. Uyghur maaripi tarixi. – Uyghur Elkitab, 2008.
9. Tatlıq E. 1949-yıldın burun Şincangda çıkarılan gezit-jornallar. URL: http://uyghur.xjass.com/lading/content/2009-04/07/content_74246.htm
10. Yengi hayot [حیات ینکی]. – Qashqar, 1936. – Son 1 (177) – 10 (186), 20-avgust – 21-sentabr.